

QORAQALPOG‘ISTON O‘ZBEK SHEVALARIDAGI ETNOMADANIY LUG‘AVIY BIRLIKLARNING AREAL TADQIQI

R. Madaminova

Qoraqalpoq davlat universiteti

ARTICLE INFO.

Kalit so‘zlar: Areal, lingvistika, tilshunoslik, kartalashtirish, dialekt, etnomadaniy, an‘analar, rasm-rusumlar, sheva.

Annotatsiya

Bu maqolada areal lingvistika zamonaviy tilshunoslik sohasining asosiy yo‘nalishlaridan biri ekanligi, bu soha bugungi kunda ham ilmiy ham amaliy jihatdan jadal rivojlanib borayotganligi aytiladi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Areal lingvistika zamonaviy tilshunoslik sohasining asosiy yo‘nalishlaridan biri sanalib, bu soha bugungi kunda ham ilmiy ham amaliy jihatdan jadal rivojlanib bormoqda. Ammo “areal yo‘nalish qiyosiy tilshunoslikning asosiy tarmoqlaridan bo‘lsa ham, bu sohada ancha sezilarli ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lishiga qaramay, tilshunoslikda “areal lingvistika” tushunchasini qanday talqin qilish borasida aniq bir to‘xtamga kelingan emas¹”. Areal lingvistikaning asosiy vazifasi – til hodisalarining ma‘lum bir hududga tarqalishini kartalashtirish va tadqiq qilish hamda shundan kelib chiqadigan muammolarni hal qilishdan iborat. Ma‘lumki, jonli tildagi har bir lingvistik hodisa o‘zining tarqalish chegarasiga, o‘z hududiga ega. Jumladan, etnomadaniy lug‘aviy birliklar chegarasi ham ma‘lum hudud bilan chegaralanadi.

Bir-biriga yaqin bo‘lgan tillar va dialektlarning o‘zaro to‘qnashuvi yuz beradigan areallarda faol munosabatlar amal qilayotgan bo‘lsa, ikki hududning oraliq chegaralarida alohida lingvistik xususiyatlar yuzaga kelishi mumkin. Ya‘ni yonma-yon holda qo‘llanilib kelayotgan dialektlarning har ikkisiga ham o‘xshash bo‘lgan alohida sheva ko‘rinishi yuzaga keladi. Yuzaga keladigan dialektni chatishgan sheva yoki chatishgan til deb yuritish mumkin. Bunday chatishmalar haqida dialektolog olimlar ko‘pgina ilmiy faktlarni keltirib o‘tganlar. Jumladan, V.Shteynitsning qayd etishicha, xanti dialekti o‘ziga yondosh areallarda joylashgan ko‘pgina dialektlarning xususiyatlarini o‘zida jamlagan bir shaklda qo‘llanilmoqda². Bu holat Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi shevalar doirasida ham kuzatiladi. Demak, bu jarayonni dialektlarning o‘zaro ta‘siri va o‘tish zonalari bilan izohlash ham mumkin. O‘tish zonalari nafaqat tillar o‘rtasida, balki dialekt-shevalar o‘rtasida ham vujudga keladi. Chunonchi, o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi areallari, asosan, Xorazm viloyatining Xiva, Qo‘shko‘pir, Urganch, Hazarasp, Shovot, Xonqa tumanlari va Qoraqalpog‘istonning Beruniy, To‘rtko‘l, Ellikqal‘a tumanlari hududlariga to‘g‘ri keladi. Ammo dialektologik tekshirishlar mazkur lahjaning Buxoro viloyatidagi Qorako‘l, Olot tumanlari hududida ham mavjud ekanligini ko‘rsatadi.

¹ Гуров Н.В., Зограф А. Ареальное языкознание: предмет и метод (на материале языков Южной Азии. // Вопросы языкознания. – 1992. – №3. – С.71.

² Штейниц В.К. Хантыйский (остяцкий) язык. Языки и письменность народов Севера. Ч.1. – М.-Л., 1937. – С.196.

Umuman, o'zbek shevalarida mavjud leksik izoglossalarni kartalashtirishda muayyan tamoyillarga amal qilish orqali tizimli yondashuv alohida ahamiyatga ega. Shu boisdan etnomadaniy birliklarni alohida mavzuiy ajratgan holda kartalashtirish yoki izofonemalarni guruhlariga (*j-lovchi, y-lovchi, diftonlashuvchi kabi*) bo'lib kartalashtirish yaxshi natijalarni beradi.

Bugungi kunda ilm-fan va madaniyatning taraqqiyoti, elektron kommunikatsiya aloqalarining rivojlanishi, uning aholiga ta'siri tuman va qishloqlarda kun sayin o'zgarishlar, qishloqlarimizni shaharga aylantirish borasida qilinayotgan ishlar – barcha-barchasi adabiy til mavqeyini kundan kunga oshirib bormoqda. Buning natijasida mahalliy til va shevalarning fonetik, leksik va grammatik o'zgarishlari sodir bo'lmoqda. Shu sababli dialekt va shevalarga xos leksik xususiyatlarni qayd qilish, yozib olish lingvistik tomonlarini qiyosiy, qiyosiy-tarixiy tamoyillar asosida kengroq o'rganish, tadqiq qilish o'zbek adabiy tilining rivojlanishi, tarixini o'rganishda shu til egasi bo'lgan xalqlar tarixi etnografiyasini o'rganishda muhim amaliy va nazariy ma'lumotlar beradi. Qoraqalpog'iston o'zbek shevalari qipchoq va o'g'uz lahjasiga kiruvchi shevalar deb ajratish mumkin. Qoraqalpog'iston dialektal arealini tarixiy lingvistik xususiyatlarini hisobga olgan holda, atrof qo'shni shevalarining munosabatini nazarda tutib, ko'plab ilmiy tasnif va tavsiflarga tayanib quyidagicha guruhlash mumkin:

Qipchoq lahjasiga mansub shevalar guruhi:

a) “y”lovchilar guruhi;

b) “j”lovchilar guruhi: *jur* (yur), *jol* (yo'l), *jenga* (yanga), *shuytip* (shunday qilib) kabi.

Qipchoqlar o'zbek xalqi etnogenizining yirik komponentini tashkil etadi. Qipchoqlar ko'pgina turkiy xalqlar: qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman, tatar, boshqird, Oltoy va ayrim Shimoliy Kavkaz xalqlari: no'g'oy, kumik, qorachoy kabi xalqlarning shakllanishida ishtirok etgan. O'zbekiston hududidagi qipchoqlar etnik guruhlarining aralashishi natijasida asta-sekin atrofda o'zbeklar tarkibiga singib bormoqda. Qadimgi va eski qipchoq yozuvi yodgorliklari bizning kunlarimizgacha saqlangan bo'lib, bu yodgorliklar arxeologlar, etnografar va lingvist turkologlar tomonidan chuqur o'rganilmoqda.

Qipchoq tili o'g'uz, bulg'or va qarluq tillari bilan birga turkiy tillarning g'arbiy xunn guruhiga mansub. U qarluq va o'g'uz tillari o'rtasida bo'lib, o'g'uz tillariga yaqinroq turadi.

O'zbek tilining qipchoq dialekt zonasi juda katta arealga ega bo'lib, j-lovchi o'zbek urug'-qabilalar guruhidan tashkil topgandir. Qipchoq shevalari O'zbekistonning hamma viloyatlarida va Respublikadan tashqarida ham mavjud.

Shevalar o'z joylashgan areallarida alohida dialektlarni emas, balki dialekt zonalarini va shevalar guruhlarini tashkil etgani holda o'zbek tili umumqipchoq arealining mos hodisalarini o'z ichiga oladi. O'zbek tilining qipchoq shevalari, asosan, XX asr boshlaridan boshlab o'rganila boshladi.

Dialektlarni areal lingvistik o'rganilishi til tarixi uchun ham, xalq tarixi uchun ham qimmatli material beradi. Dunyo tilshunosligida har bir milliy tilining ichki rivojlanish manbayi bo'lgan shevalarni tadqiq qilish, dialektal atlaslar yaratish, tillarni lingvoareal jihatdan o'rganish, uning natijalarini ilmiy yo'nalishlarda foydalanish bo'yicha boy tajribalar to'plandi. Mashhur rus tilshunosi Bulakovskiy fikricha, adabiy tilning doimiy boyib borishi va uning asosiy manbalaridan biri o'zlashma so'zlar hisoblanadi. O'zbek tilining adabiy tilini anglatuvchi qadimiy milliy qatlamiga, ayniqsa, uning shevalariga, lahjalariga, har xil milliy marosim va an'analari, urf-odatlariga, e'tiqodiga, oilaviy marosimiga bog'liq so'z va iboralar asosiy tarkibini umumturkiy va sof o'zbek tilidagi so'z va iboralar tashkil etadi. Shular jumlasiga *suyinshi, besik toy, kəzmonshaq, jaushы, bet ashar, quda shaqыrыq, shyтылдыq tutыu, pətiya toy, qonyq beriu, tərkinletiu, kenes toy, qalyн malы, baqan tutыu, jetisi, qырqы, juzi, jyly* va shu kabi etnografizmlar kiradi. Bunday faol etnografizmlar boshqa turkiyzabon xalqlarda ham qo'llaniladi va ma'nosi ham bir xil. O'zbek tili va dialektlarni areal jihatdan tadqiq etish bugungi o'zbek tilshunosligida o'ziga xos ahamiyat kasb etib bormoqda. Qoraqalpoq tili etnografizmlari leksik tarkibi bir xillikdan emas, aksincha, ular sof qoraqalpoq so'zlari bilan bir qatorda

umumturkiy, fors-tojikcha, arab va ruscha o'zlashmalardan tashkil topgan. Qoraqalpog'istonda yashovchi o'zbeklar nutqida ham yuqoridagi so'zlar ishlatiladi. Bu hududda yashaydigan o'zbeklar ishlatadigan ko'pgina so'zlarda qaraqolpoq tilining ta'siri sezilib turadi. Bundan tashqari, bu yerda yashaydigan xalqlarning urf-odatlar, an'analar, rasm-rusumlari bir-biriga juda o'xshab ketadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Гуров Н.В., Зограф А. Ареальное языкознание: предмет и метод (на материале языков Южной Азии. \ \ Вопросы языкознания. – 1992. – №3. – С.71.
2. Штейниц В.К. Хантыйский (остяцкий) язык. Языки и письменность народов Севера. Ч.1. – М.-Л., 1937. – С.196.
3. Mirzayev N. O'zbek tili etnografizmlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 1991. – B.12.
4. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. – Тошкент, Фан, 1961.
5. Қошғарий М. Девони луғатит турк. – Тошкент, 1960.